

Xabibullo Kabilov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası
dotsenti, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: habibullo.uzb@gmail.com*

MUQIMIY NOMIDAGI O'ZBEK DAVLAT MUSIQALI TEATR REJISSURASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatr rejissurasidagi so'ngi yillardagi izlanishlar, zamonaviy tendensiyalar istiqboli va muammolari bir qancha spektakllar misolida tahlil etilgan. Maqolada rejissyorlar o'rtasidagi kollaborativ hamkorlik va mushohadaga asoslangan integrativ yondashuvlar ilmiy o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** kollaboratsiya, integrativ, tendensiya, element, interpretatsiya, interaktiv yorug'lik effektlari, proyeksiya, vidografika.*

MODERN TRENDS IN THE DIRECTING PRACTICE OF THE MUQIMIY UZBEK STATE MUSICAL THEATRE

***Abstract.** This article analyzes the recent creative explorations, emerging modern trends, their prospects, and existing challenges in the directing practice of the Muqimiy Uzbek State Musical Theatre, drawing on the example of several stage productions. The study examines collaborative partnerships among directors and integrative approaches grounded in artistic reflection and conceptual interpretation from a scholarly perspective.*

***Keywords:** collaboration, integrative approach, trend, element, interpretation, interactive lighting effects, projection, videography.*

So'nggi yillarda musiqali drama teatri rejissurasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va amaliy izlanishlar an'anaviy mumtoz va lirik asarlarga qayta murojaat qilish bilan xarakterlanmoqda. Bu jarayonda zamonaviy badiiy-estetik konyunkturaning ta'siri ostida shakllangan tafakkur usullari, shuningdek rejissyorlar o'rtasidagi kollaborativ hamkorlik va mushohadaga asoslangan integrativ yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Bunda spektakllarning ma'naviy va estetik sifatini yuksaltirish, tarixiy-ma'naviy merosni zamonaviy talablar asosida qayta tadqiq etish maqsad qilinadi.

Ushbu jarayonda tarixiy badiiy asarlarning qayta sahnalashtirilishi muhim tendensiyaga aylanib, rejissyorlik amallari orqali milliy musiqa, sahna harakati va dramaturgiya elementlari o'zaro muvozanat bilan uyg'unlashtirilmoqda. Xususan, "To'da", "Farhod va Shirin", "Zo'rdan zo'r chiqsa" kabi tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarning qayta ijrosi milliy musiqiy an'analar bilan boyitilishi va ularga yangi rejissyorlik interpretatsiyasida yondashuv orqali musiqali drama janrining zamonaviy tendensiyalarini belgilashga xizmat qilmoqda.

Bu jarayonning o'ziga xos jihati shundaki, rejissyorlar an'anaviy san'at yo'nalishlarini saqlab qolgan holda, ularni zamonaviy estetik konsepsiyalar bilan boyitadi va shu tariqa milliy teatrimizda badiiy ijodning yangi bosqichini yaratishga harakat qiladi. Kollaborativ usullar orqali rejissyor, bastakor va sahna harakati mutaxassislari o'rtasidagi yaqin hamkorlik spektaklning umumiy vizual va musiqiy kompozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Natijada, musiqali dramadagi bu yangi rejissyorlik amaliyoti nafaqat badiiy-saviyani oshirish, balki milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, tomoshabin bilan yangi muloqot shakllarini yaratish imkoniyatini beradi. Zamonaviy musiqali teatrdagi bunday izlanishlar milliy va global teatr san'ati o'rtasida dialogni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy rejissurada texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda janrlararo kross-janr uslublari tajriba sifatida qo'llanilmoqda. Sahnalashtirilayotgan spektakllarda zamonaviy texnologiyalar – interaktiv yorug'lik effektlari, proyeksiya, vidografika, kompozitsion audiovizual vositalar kabi digitalitsatsiyalardan foydalangan holda sahnada tasavvur muhitni kuchaytirishga, g'oyaviy tahlilni kuchaytirish evaziga asarning universalligini oshirishda qo'llanilmoqda. Mazkur texnologik yangiliklar yordamida real va irreal voqelik o'rtasidagi chegarani bartaraf qilgan holda yangi sahna asarlarini tajriba sifatida taqdim etishmoqda.

Bundan tashqari musiqali rejissurada janrlararo tajribalar ham o'tkazilgan holda an'anaviy musiqali dramaga xos bo'lgan drama, opera, balet, musiqa bilan bir qatorda pantomima, performans, universalizm va yuqorida ta'kidlangan digitalizatsiya elementlari uyg'unlashuvi tendensiyasi kuzatilmoqda. Mazkur sintez rejissyorning bosh g'oyasini, topilmalarini boyitishga, asarning tomoshaviyligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2005-yilda teatrdagi rejissyor M.Azizov tomonidan dramaturg N.Qobilovning "To'da" asari sahnalashtirildi. Asar eksperimental spektakl bo'lib, musiqali drama teatri sahnasiga birinchi marotaba rep uslubi kirib keldi. Mazkur pyesa dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib, jaholat botqog'iga botib borayotgan yoshlar hayotidan olingan. O'z hayotini zaharlayotgan yoshlarning ayanchli taqdiri ochib berilgan. Sahna markazida mehrob ramziy o'rnatilgan bo'lib asarning bosh g'oyasini ochib berishda asosiy vazifani bajargan. M.Azizov ushbu spektakl yordamida rejissyorlik mahoratini to'liq ochib bergan. Mirza Azizovning rejissyorlik yondashuvi an'anaviy musiqali drama shakllarini saqlab qolgan holda, ularni modern estetika va teatr ekspressionizmi elementlari bilan boyitdi. Spektaklda sahna kompozitsiyasi va harakatlari orqali qahramonlar ichki holatlari, psixologik vaziyatlar murakkablik bilan ko'rsatildi.

M.Azizovning rejissyorlik mahoratining eng yaqqol namoyon bo'lgan jihatida dramaturg bilan hamfikrlilikda – mehrob ramzini sahna markaziga joylashtirish orqali asarning ma'naviy asosini vizual tarzda ifodalashdir. Bu ramziy obyekt spektaklning falsafiy g'oyasini, yoshlarning ma'naviy inqirozi va ularning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.

Shuningdek, rejissyor musiqa va lirik sahna harakatlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor bergan. Sahna harakati va qahramonlarning interaktiv harakatlari vositasida muammolarning ichki tuzilmasi va yoshlar hayotidagi murakkabliklar samarali aks ettirildi. "To'da" spektakli musiqiy jihatdan ham o'ziga xos yangi yo'nalishni namoyon etdi. Unda an'anaviy milliy musiqa va musiqali dramaga xos klassik ariyalar bilan birgalikda musiqaning rep turidan

foydalanish qayd etildi. Bu jihat spektaklga zamonaviylik va ijtimoiy hayotning real ritmini olib kirdi.

Rep uslubi yoshlar nutqi va ongiga yaqin bo'lib, spektakldagi ijtimoiy-ijodiy muammolarni yorqin va aniq tarzda ifoda etishga xizmat qildi. Bu musiqiy yo'nalish yosh avlod va ularning hayot tarziga mos kelib, spektaklning realistik va dramatik ta'sirini oshirdi [1, 197-b].

An'anaviy musiqa elementlari esa milliylik va ma'naviylikni ta'minlab, spektaklga xalq musiqiy madaniyati bilan bog'liqlik hissini berdi. Ularning qo'shilishi spektaklga estetik boylik va musiqiy ko'pqirralilikni kiritdi. "To'da" spektakli giyohvandlik muammosini yoshlar hayotiga ta'siri vositasida ko'tarib chiqqan bo'lib, bu holat milliy jamiyatdagi muhim ijtimoiy mavzulardan biri sifatida yanada keng muhokamaga asos yaratdi. Spektaklning ijodiy topilmalari, rejissyorlik usullari va musiqa qo'llanilishi birgalikda uni musiqali drama janridagi muhim eksperimental asarga aylantirdi.

Shuningdek, spektakl xalqaro teatr arenasida ham yuqori baholandi. Spektaklning muvaffaqiyati natijasida Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida an'anaviy tarzda har yili o'tkaziladigan Xalqaro teatr san'ati festivalida qatnashib, katta muvaffaqiyatga erishib qaytgan. Qohira shahriga kelgan 50 dan ortiq mamlakat teatr jamoalari, tomoshabinlar va festival hay'ati e'tiboriga tushganligi tufayli bir yo'la ikkita mukofotga sazovor bo'lgan. Bular – Xalqaro XVII jahon teatr festivalida yoshlar bilan ishlash va ularni qo'llab-quvvatlash fondi ajratgan mukofot hamda "Eng dolzarb muammoni ko'tarib chiqqanligi uchun" nominatsiyasi sovrinlari edi [2, 2–3-b]. Voqealar tizimi yosh avlod qatlamiga mansub bo'lishi bilan bir qatorda asr vabosi bo'lgan giyohvandlik muammosiga qaratilgan bo'lganligi tufayli ushbu spektakl bugungi kungacha o'z tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelmoqda.

Musiqali drama teatrida 2018-yilda rejissyor Barzo Abdurazakov tomonidan sahnalashtirilgan "Farhod va Shirin" nomli eksperimental spektakl, innovatsion rejissyorlik yondashuvi va zamonaviy badiiy talqini bilan alohida ahamiyatga ega

bo'lsa-da, teatrshunoslar va san'atshunoslar jamoasi tomonidan keng ko'lamda qabul qilinmadi. Ijodkorlar "Farhod va Shirin" asari orqali an'anaviy mumtoz syujetni postmodernistik elementlar orqali qayta tahlil qilishga va ko'pqirrali vizual hamda akustik usullar bilan ifoda etishga urinishigan.

Barzo Abdurazakovning rejissyorlik konsepsiyasida spektaklning eng asosiy g'oyasi sifatida pok va asl muhabbat mavzusi saqlab qolingani bo'lib, bu g'oyani zamonaviy qarashlar asosida yoritishga harakat qilingan. Postmodernizmning belgilaridan biri – dekoratsiyada minimalistik yondashuv qo'llanilishi va sahna ko'rinishlarining doimiy almashmasligi spektakl dekoratsiyalaridagi o'zgarishlar oqimni keskin emasligi tomoshabin fikri bo'linmay tomosha qilishi maqsadida xizmat qilgan. Musiqiy jo'rlikda bo'lsa mumtoz bastakorlar ijodiga murojaat orqali yangi musiqiy komponentlar bilan uyg'unlashuv kuzatiladi. Bu esa spektaklga zamonaviylik va bir vaqtning o'zida tarixiy qadriyatlarni saqlash xususiyatini beradi.

Spektaklda gumanistik g'oyalarning ifodalanishi bilan bir qatorda, universalizm prinsiplari ham mukammal tarzda namoyon etiladi. Muallif bir tomondan borliqni aniq tushunishga, inson ma'naviyatini ifodalashga urinsa, boshqa tomondan esa ijodiy jarayonda bir nechta janrlar, badiiy tizimlar va estetik qarashlarni uyg'unlashtirish orqali teatr san'atida yangi format yaratishni ko'zlaydi.

Shuningdek, spektaklning vizual san'at va liboslar dizaynidagi yangiliklar ham muxlislar diqqatini tortdi. Mirjalol Holiqovning rassomlik mahorati bilan spektakl sahnalaridagi murakkab ma'nolarni minimal shakllarda ifodalash, libos rassomi Sevara Zununovaning esa zamonaviy va an'anaviy motivlarni uyg'unlashtirgan kiyimlar konsepsiyasi spektaklning umumiy estetik tuzilishiga mustahkam asos yaratdi.

Spektaklda amalga oshirilgan postmodernistik elementlar, minimalizm usulidagi dekoratsiya va klassik musiqiy ijodga murojaat kabi yangiliklar, janrlarning aralashma tarzda kelishi kabi usullar milliy teatr an'analarga zid deya baholandi. Natijada, spektaklning premyerasiga ruxsat berilmaslik va to'liq bekor qilinishiga qaror qilindi. Bu qaror teatrshunoslar orasida turli bahs-munozaralarga

sabab bo'lib, musiqali drama teatrimizning zamonaviylik hamda eksperimentga qay darajada tayyorligi, shuningdek, san'atdagi yangi tendensiyalar bilan an'anaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalariga keng jamoatchilik e'tiborini qaratdi. Teatrshunoslar o'z tanqidlarida, spektaklning badiiy va estetik yondashuvlari ko'p jihatdan milliy madaniyatiga va dramaturgiyaning mohiyatidan chetlashishga olib kelganligini ta'kidlashdi.

Shu bilan birga, "Farhod va Shirin" asari milliy teatr san'atining rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochishga intilganligi sababli, keyingi ijodiy izlanishlar uchun muhim tajriba sifatida baholandi. Bu voqea milliy teatr sohasida innovatsiya va eksperiment uchun qanday chegaralar mavjudligi, shuningdek, yangi formatlarni qabul qilishda muvozanatni saqlashning ahamiyati haqida katta bahslarni yuzaga keltirdi [10, 202-b].

2019-yilda musiqali drama teatrida rejissyor O.Salimov, Molerning "Skapen nayranglari" asari asosida Sh.Boshbekovning inssinirovkasi "Zo'rdan zo'r chiqsa" spektakli sahnalashtirildi. Musiqasini Oydin Abdullayeva, dirijyor A.To'rayev hamkorligida sahnalashtirildi. Spektaklning rejissyori O.Salimov tomoshabinni ilk daqiqalardan oq sahna harakati, obrazlar uyg'unligi va jonli muloqotlar orqali jalb etadi. Uning ijodiy yechimlari orqali klassik asar zamonaviy ruhda, xalqqa tushunarli va qiziqarli tarzda qayta yoritilgan. Rassom Jaloliddin Rahimov asar dekoratsiyasida minemolizmdan foydalanadi.

Rejissyor sahna harakatida dinamikaga, xarakteri kuchli obrazlarga urg'u bergan. Asarning markazidagi konfliktlar va xarakteri keskin obrazlar yordamida jamiyat muammolariga mulohazali murojaat yaratiladi. Musiqa sahna harakati bilan uyg'un bo'lib, dramatik kurashlar va yumoristik epizodlarda kayfiyatni to'liq aks ettiradi. Ayniqsa, milliy sozlar elementlarining qo'llanilishi tomoshabinning hissiy taassurotini kuchaytiradi. Shu bilan birga, vodiy nag'malari, milliy sozlar (masalan, dutor, g'ijjak, nay) va rang-barang an'anaviy kuylardan foydalanilgan. Bu nafaqat sahnani jonlantiradi, balki tomoshabinni xalq madaniyati bilan yanada yaqinlashtiradi. Aktyorlar tomonidan ijro etilgan obrazlar hayotiy, ishonarli va

hissiy jihatdan boy. Har bir aktyor o'z rolini nafaqat sahnada ijro etdi, balki uni his qildi, o'ziga xos individual yondashuv bilan yaratdi.

Ayniqsa, bosh qahramon obrazini yaratgan aktyorning mimikasi, harakatlari va nutqi orqali u tomoshabinni o'z ichki dunyosini anglashga chorlaydi. Qahramonlar o'rtasidagi muloqotlar real va yumoristik bo'lib, spektaklning umumiy ruhini ochib beradi. Sahna bezaklari va kostyumlar vaqt va makonni anglatuvchi muhim element sifatida o'rinli tanlangan. Dekoratsiya minimalizmga bo'lsa-da, maqsadga muvofiq. Kostyumlar esa xarakterlarning individual xususiyatlarini aniq ifoda etishda xizmat qilgan.

Musiqali drama teatrlarida tarixiy badiiy mavzudagi asarlar alohida o'rin egallaydi. Bunday sahna asarlari tomoshabinlarga chuqur kechinmalar (katarsis) bag'shida etish bilan birga, ajdodlarimiz to'g'risida, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi. Xalq o'zining buyuk ajdodlari to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi. Ularning buyuk ishlari, ilm-fan sohasiga qo'shgan ulkan hissalar, Vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasoratlari, xizmatlari to'g'risida tasavvurlari yanada boyiydi. Tarixiy mavzularda asar yaratish uchun chuqur ilmiy va ayni vaqtda yuksak badiiy dramaturgik mahorat darkordir. Ijodkorlar tarixiy shaxs to'g'risida asar yaratar ekan, qahramonning faoliyati, fe'l-atvori, vaqt, zamon, makon xususiyatlarini hisobga olib, dramatik kurashga boy syujetlar yaratadi [8,666-b].

So'nggi yillarda musiqali drama teatri rejissurasida an'anaviy, mumtoz va lirik asarlarga qayta murojaat qilish tendensiyasi milliy teatr san'atining jadal rivojlanishi va madaniy merosni asrashdagi muhim bosqich sifatida ko'rinadi. Bu jarayon nafaqat tarixiy-ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklashga, balki ularni zamonaviy badiiy-estetik kontekstda yangi shakl va mazmunga ega qilishga qaratilgan. Rejissyorlik amaliyotida shakllanayotgan integrativ va kollaborativ yondashuvlar musiqali drama spektakllarining ma'naviy va estetik sifatini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda rejissyorlar, bastakorlar va rassomlar o'rtasidagi yaqin hamkorlik asosida shakllangan multidissiplinarlik

musiqali spektakllarning vizual va akustik kompozitsiyalarida yangi formatlarni joriy etishga imkon beradi. Bu esa tarixiy asarlarning zamonaviy talqinda namoyish etish, milliy musiqa va dramaturgiyani o'zaro uyg'unlashtirish orqali musiqali drama janridagi ijodiy izlanishlarning yangi bosqichini belgilaydi. Xususan, "To'da", "Fotima va Zuhra", "Zo'rdan zo'r chiqdi" kabi asarlarning qayta ijrosi milliy musiqiy an'analarni saqlab qolish bilan birga ularni zamonaviy rejissyorlik metodlari va spektakl elementlari bilan boyitishga yordam beradi. Bu jarayon milliy teatrimizning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, shu bilan birga milliy auditoriyaning estetik ehtiyojlarini qondirish va ularni zamonaviy teatr san'ati bilan yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, rejissyorlikning bu yangi amaliyoti milliy teatr san'atida innovatsiyalarni joriy etish, milliy va global madaniy fazoda sintez jarayonlarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi [9,251-b]. Ushbu izlanishlar nafaqat milliy musiqali dramaturgiyaning rivoji uchun, balki xalqaro teatr san'ati bilan samarali muloqot va integratsiya jarayonlarini mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, an'anaviy mavzularga yangicha rejissyorlik yondashuvlari milliy musiqali teatrning ijodiy potensialini kengaytirib, uning zamonaviylik va milliylik o'rtasidagi muvozanatini ta'minlaydi. Bu esa milliy madaniy merosning hayotchanligini saqlab qolish va uning jahon madaniy muhitida o'z o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bunday rejissyorlik amaliyoti teatr san'atining ijodiy va badiiy yo'nalishlarini yanada rivojlantirishga, tomoshabin bilan muloqotning yangi shakllarini yaratishga hamda milliy va xalqaro teatrli muhitda o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра. Гафур Гулям. – Ташкент: Литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1995. – 86 с.

2. Туляходжаева М. История театра (Узбекский театр периода независимости). – Ташкент: Илм-Зиё-Заковат, 2021. – 303 с.
3. Tojiboyeva O. Epos san'at ko'zgusida. – Toshkent: O'zDSI, 2009. – 200 b.
4. Tojiboyeva O. Epos va teatr. Xalq epik ijodiyotining teatr san'atidagi o'rni. Birinchi kitob – Toshkent: San'at jurnal nashriyoti, 2015. – 235 b.
5. Ismoilov A. Zamonaviy o'zbek drama teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari (1991–2016-y). San.fan.fal.dok.diss. – Toshkent, 2019.
6. Nigar Nəsir qızı Sarıkışızadəning “Azerbaydjanskaya muzikalnaya drama”, dissertatsiya, 17.00.02 – Музыкальное искусство. Бакинская музыкальная академия имени Узеира Гаджибекова, 2004.
7. Caird J. Directing Opera: A Modern Guide. – AQSh: Hal Leonard Performing Arts Publishing Group. (Hal Leonard Corporation – Viskonsin shtatida joylashgan yirik musiqiy nashriyot), 2016.
8. Qobilov X. XX asr o'zbek musiqali teatr rejissurasida yangi talqin nafasi //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 5. – B. 661–666.
9. Qobilov X. Aktyorlik mahorati va rejissura masalalari//Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – B. 251–255.
10. Qobilov H. Teatr san'atining rivojlanishida musiqa san'atining o'rni //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – B. 197–202.
11. Dadamirzayev O. Rejissura – teatr san'atining yetakchi va hal qiluvchi komponentidir //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 5. – B. 550–553.
12. Dadamirzayev O. Problems of Training Qualified Personnel in the Art of Cinema, Television and Radio //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 26. – P. 57–58.
13. Dadamirzayev O. Aktyor psixotexnikasi uning maqsadi va vazifasi //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 3. – B. 510–514.